

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA
TARBIYANING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI**

**MODULINING
O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI**

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Tarbiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylar pedagog xodimlari

Buxoro – 2025

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil "27" dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tarbiya" yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini malakasini oshirish kursining o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **Olimov Sh.Sh.** - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasini mudiri p.f.d., professor,
 Samiyeva Sh.X. - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasini dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Taqrizchi: **Adizov B.R.** – Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	9
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	12
IV. AMALIY MATERIALLAR.....	35
V. GLOSSARIY.....	41
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	47

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan tayanch moduli mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarni tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rni, jamiyatda bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish, tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlari, tarbiyada ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlar bilan birgalikda o'qituvchilarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: o'qituvchilarning "Yangilanayotgan O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy yo'nalishlari" modulini o'tish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilarning "Yangilanayotgan O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy yo'nalishlari" moduli bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;

- o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda bevosita muammolarni hal qilish, ya'ni ularning tarbiyaviy faoliyatga ilmiy-nazariy jihatdan yondashuvi bo'yicha mahoratini oshirish;

- "Yangilanayotgan O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy yo'nalishlari" modulini o'qitishda zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, ilg'or uslublarni keng joriy etishga zarur shart - sharoit yaratish, shu bilan birga, kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini rivojlantirib borishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- Yangilanayotgan O‘zbekistonda tarbiyaning zamonaviy yo‘nalishlarining maqsadi hamda vazifalarini;
- tarbiya jarayonining o‘ziga xos qonuniyatlarini;
- tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishini;
- Yangilanayotgan O‘zbekistonda tarbiyaning zamonaviy yo‘nalishlarining tamoyillarini;
- ijtimoiy tarbiya jarayonidagi asosiy muammo va ularning yechimini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- “Yangilanayotgan O‘zbekistonda tarbiyaning zamonaviy yo‘nalishlari” modulini o‘qitishning optimal metod va vositalarini qo‘llash, turli vaziyatlardan ulardan to‘g‘ri foydalana olish;
- tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o‘rnini to‘g‘ri belgilay olish;
- tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlarini an’anaviy va noan’anaviy holda tashkil etish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- tarbiya ijtimoiy fan sifatida jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o‘rnini aniqlash;
- tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlarni shakllantirish;
- tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda bevosita muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy yondashuvlarga asoslanish hamda ulardan amalda qo‘llash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

O‘QUV MODULI BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	JAMI	Umumiy auditoriya soati	Jumladan	
				Nazariy	Amaliy

1.	Tarbiya - ijtimoiy-pedagogik hodisa va jarayon sifatida	2	2	2	
2.	Tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlari	2	2	2	
3.	Tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlar	2	2		2
4.	Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modeli	2	2		2
	Жами	8	8	4	4

1.1.Янгиладанаётган Ўзбекистонда тарбиянинг замонавий йўналишлари.

Тарбия –ижтимоий-педагогик ҳодиса ва жараён сифатида. Тарбия назариясининг моҳияти, тарбиявий жараённинг мазмуни, шакл, метод, восита ва усуллари ҳамда уни ташкил этиш муаммолари. Ижтимоий тарбия тамойиллари.

Тарбияда ижтимоийлашув механизмлари. Тарбия фанининг жамият ва шахс ривожланишидаги ўрни. Ижтимоий тарбиянинг мақсади ва ижтимоийлашув механизмлари. Тарбияда ижтимоий маданий тажрибалар, меъёр ва қадриятлар.

Тарбияда ижтимоий-педагогик қонуниятлар ва обектив жараёнлар. Замонавий жамиятда ижтимоий институтларнинг роли. Тарбия ижтимоий институт сифатида. Ижтимоийлашувда тарбиянинг мазмун ва моҳияти.

Тарбиявий жараёнларни ташкил этишнинг ижтимоий-педагогик модели. Жамиятда фаолият юритиш ва уни ривожлантиришга қодир бўлган кадрларни тайёрлаш масалалари. Тарбиянинг ижтимоийлашув обекти ва субъекти, тарбияга анъанавий ва замонавий ёндашувлар. Тарбиянинг инсонпарварлашув тамойилини амалга оширишнинг замонавий йўллари.

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Tarbiya –ijtimoiy-pedagogik hodisa va jarayon sifatida

(2 soat nazariy)

REJA:

1. Tarbiya nazariyasining mohiyati, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolari.
2. Ijtimoiy tarbiya tamoyillari.

2-Mavzu: Tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlari (2 soat nazariy)

REJA:

1. Tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'ri.
2. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va ijtimoiylashuv mexanizmlari.
3. Tarbiyada ijtimoiy madaniy tajribalar, me'yor va qadriyatlar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlar (2 soat amaliy)

REJA:

1. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning roli.
2. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida.
3. Ijtimoiylashuvda tarbiyaning mazmun va mohiyati.

2-Mavzu: Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modeli (2 soat amaliy)

REJA:

1. Jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash masalalari.
2. Tarbiyaning ijtimoiylashuv obyekti va subyekti, tarbiyaga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar.
3. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirishning zamonaviy yo'llari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabr “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori

III. Maxsus adabiyotlar

16. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniy obrazovatelniye tekhnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

17. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. – M.: MAKSS Press, 2016. – 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

18. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

19. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

20. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

21. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2009. – 160 b.
22. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika /Toshkent -2009
23. Topildiyev V. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. - Toshkent: “Universitet”. 2015. – 245b.
24. Quronov M ., Turayev SH .va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. o'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti 2017y. 18b.t
25. Kodirov A ., Quronov M.va boshq.Fazilatli avlod: 7-18yosh gacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti 2019 y.
26. Olimov Sh.SH.. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 bet.

IV. Internet saytlar

27. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
28. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
29. <http://lib.bimm.uz> –Bosh ilmiy-metodik markazi.
30. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
31. <http://natlib.uz>–Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
- 32.
- 33.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI


II. FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin.

Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

NIMA UCHUN?



muammoni aniqlash, uni hal etish,
tahlil qilish va rejalashtirish
jarayonida qo‘llash mumkin

“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-

ketligi

1-bosqich

Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish



2-bosqich

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta “nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.



3-bosqich


Tinglovchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.



4-bosqich

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi



“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari.

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

“DAVRA SUHBATI” METODI

Davra suhbati- tinglovchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan ta’lim berish metodidir.

«**Davra suhbati**» metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir tinglovchining bir-biri bilan «ko‘z aloqasi»ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va tinglovchilardan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir tinglovchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan tinglovchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir tinglovchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir tinglovchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va yonidagi tinglovchiga uzatadi. Konvertni olgan tinglovchi o‘z javobini qog‘ozga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi tinglovchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbati metodini olib borish bosqichlari quyidagilardan iborat:

Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.

Ta’lim beruvchi tinglovchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.


Aylana stol bo‘ylab konvertlarning harakatlanishini sxema orqali ko‘rsatib beradi va javoblar yozish uchun ajratilgan vaqtni belgilab beradi.

Tinglovchi konvert ustiga savolini yozadi va yonidagi tinglovchiga uzatadi.

Konvertni olgan tinglovchi qog‘ozga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi tinglovchiga uzatadi.

Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali tinglovchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar.



Belgilar:

1-ta’lim oluvchilar

2-aylana stol

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Tarbiya –ijtimoiy-pedagogik hodisa va jarayon sifatida

(2 soat nazariy)

REJA:

1. Tarbiya nazariyasining mohiyati, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolari.
2. Ijtimoiy tarbiya tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, fan, ob’ekt, predmet, vazifa, tadqiqot usullari, integratsiya.*

1.1.Tarbiya nazariyasining mohiyati, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolari.

Tarbiya haqida gapirar ekanmiz Shayx Sa’diyning «Guliston» asarida shunday fikrlar keltirilgan edi: «Kimda- kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo’lgach, baxtli bo’la olmaydi. Ho’l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani faqat olovda toblab to’g’rilash mumkin». Tarbiya jarayoni haqidagi bu g’oya avlodajdodlarimizdan bizga yetib kelgan buyuk meros bo’lib, u komil insonni voyaga yetkazishda muhim manbalardandir. Tarbiya tug’ilgan kundan boshlanmog’i lozim. Tarbiya-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o’stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy hodisa bo’lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o’ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan asosiy metodikalar ham bizga mutafakir allomalarimizdan yetib kelgan. Buyuk allomalarimizdan A.Avloniy tarbiyaning inson hayotida zarurligini nazarda tutib «Tarbiya-hayot yo mamot» deb ta’kidlagan edi. Tarbiyaviy jarayoni ongli, ma’suliyatli faoliyat bo’lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga har tomonlama ta’sir ko’rsatadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi yosh avlodni ma’naviy jihatdan yuksak fazilatlar egasi qilib voyaga yetkazish san’atining qirralari, shakllari hamda bilim, malaka hosil qilish haqida baxs yuritadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi milliy ong va istiqlol mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsad va asosiy vazifalari esa ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari rahbarlari,

o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishi, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishi, o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlar uchun metodlarni tanlashi, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilishi, ilg'or tajribalarni kuzatib, tahlil qilishi, undan ijodiy foydalanishi, yangi ilg'or pedagogik texnologiyani joriy etishi, tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatishi, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning uslubiy-metodologik asosi o'tmish xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklari, xalq arboblari, Markaziy Osiyolik mutafakkir, ma'rifatparvar olim, pedagoglarning boy merosidir. Shu bilan birga, Islom dini va tasavvuf olamiga oid ta'limotlari, Hadis va hadisshunos olimlarning ijodiyoti, g'arb va sharq olimlarining she'rlarini o'qish, tahlil qilish orqali tarbiyaviy ishlarni bolalar qalbiga yetkazishning qonun-qoida, usul va yo'llarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, mustaqil O'zbekistonda komil inson tarbiyasiga oid ilmiy-metodik, ommaviy adabiyotlar, shuningdek, O'zbekiston birinchi Respublika birinchi prezidenti I.A.Karimovning va O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bir qator asarlari yosh avlodni tarbiyalashga oid g'oyalar tizimning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasining asosiy manbalari:

- Milliy umuminsoniy qadriyatlar
- Islom ta'limoti
- O'zbek Milliy urf-odatlari
- Donolar o'g'itlari
- O'zbekiston Respublikasining ramzlari: - Gerbi - Madhiyasi - Bayrog'i – Konstitutsiyasi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning sharqona o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari mavjud. Tarbiyachilik kasbiga yo'naltirilgan

hozirgi zamon texnikasi bilan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish milliy istiqlol talabiga javob beradigan barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgandir. Barkamollikning birinchi namunasi vatanga muxabbat, vatan tuyg'usi, g'ururi va uni sajdagoh sifatida ardoqlashdir. vatanga muhabbat zaminida insonparvarlik tuyg'usi tarbiyalanadi. buyuk davlat arbobi zahiriddin muhammad bobur: «o'z yurtni qo'yib, hind sari yuzlanmoqni yuzi qaroliq», deb hisoblagan edi. milliy tiklanish kishilarda insonparvarlik, o'zligini anglash tuyg'ularini tarbiyalamoqda. odamlar birbiriga do'st, mehribon bo'lsalar insonparvarlikdan baynalmilallik va birdamlik kelib chiqadi. o'zbekistonda yashovchi kishilar millati, tili, dini, mazhabidan qat'i nazar, birgalikda o'zbekiston xalqini tashkil etadilar. ular o'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladilar. bas, shunday ekan, biz hammamiz bir oilaning farzandlarimiz, birbirimiz bilan do'stona va totuv yashab, sevimli diyorimizning istiqbolini yarata bormoqdamiz. avlodlarimiz tarixini va ular qoldirgan merosini o'rganish lozim. xalqimiz azaldan mehnatni ulug'lagan. mehnatsevarlik kishilarni eng yaxshi fazilatlaridan biri, deb hisoblangan. kishilar halol mehnat qilib topgan daromadlari hisobiga yashamoqlari va bolalarini boqib katta qilmoqlari lozim.

Halol mehnat kishilarni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, inson hayotining tub mohiyatini tashkil etadi. Ma'naviy jihatdan pok va yuksak darajadagi odam ta'madan hazar qiladi, undan nafratlanadi. Haqiqiy saxovat hech qachon biror narsa ta'ma qilmaslikdadir. Alisher Navoiy yozadi: Oni saxiy anglagil, ey xushmand, Kim ani davlat qilibon sarbaland. Holi agar yaxshidur taboh, Kimsadan etmas ta'mayi molu joh...

Ma'naviy barkamol insonning yana bir fazilati kattaga hurmat, kichikka shafqatli bo'lish. bu masalada, xususan, ota va onaga bo'lgan izzat alohida o'rin tutadi. O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi avlodni shakllantirish vazifasini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, buni ibratli timsollar orqali amalga oshirish lozimligini unutmasligimiz kerak. Bunday timsollar badiiy adabiyotda yetarli. Masalan: Alisher Navoiyning Farhod, Shirin, Qays, Layli, Dilorom, Sa'd, Iskandar, Mehrnoz, xalq og'zaki ijodining Alpomish, Barchin, Qorajon, Qaldirg'och, Ravshan kabi qahramonlari, badiiy adabiyotimizning Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, G'ofir,

Jamila, Gulnor, Saida singari obrazlari shular jumlasidandir. Bu qahramonlar qalbidagi chin sevgi tuyg'ulari qanchadan-qancha avlod qalbini maftun etgan. Alisher Navoiyning ushbu baytini sizga keltirib o'tamiz: Bo'lmasa ishq ikki jahon bo'lmasin, Jahon balki bu jon bo'lmasin. Demak, baxtning. Jahondagi hayotning chin asosi sevgidir. Sevgi bor joyda yovuzlikning tomiri quriydi.

1.2. Ijtimoiy tarbiya tamoyillari.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulqatvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Agar mendan "sizni nima qiynayapti deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman"- deydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Bu fikrlari mustaqil yurtimizni, ertamizning egalariga ta'lim- tarbiya berishdek ulkan ma'suliyat, davlat rahbari, mutassadi tashkilotlar, har bir oila, jamiyat a'zolari oldidagi ulkan ish sifatida qarashimizni taqozo etmoqda. Bugungi bola o'tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o'zbek o'g'il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo'lmog'i lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ibn Sino ta'biricha, "ota-ona bola tarbiyasini unga ism qo'yishdek oliyjanob vazifadan boshlaydi".. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo

hayot, yo mamot, yo najot -yo falokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratlibolishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Tarbiyaning keng pedagogik ma‘nosi o‘quv tarbiya muassasalaridagi shaxsni shakllanishini anglatadi, tor pedagogik ma‘noda tarbiyani jarayon sifatida qaralishini ifodalaydi. Tarbiyani tor pedagogik ma‘nosi aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro ta‘sirida aniq insoniy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan, maxsus tashkil etilgan faoliyat tushuniladi. Bu yerda pedagoglar faoliyati tarbiyaviy ishlar deb yuritiladi. Tarbiya nazariyasining mohiyati. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardanyondashish o‘lib o‘tgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni ham qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya tamoyillari tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo‘lib, ular asosida nazariyalar ishlab chiqiladi va tarbiyaning shakl metod va vositalari amalga oshiriladi;

— tarbiya inson o‘zini ijtimoiylashuv sub'ekti sifatida his qilishi, uz sub'ektivligining namoyon qilishi va taraqqiy etishi uchun sharoit yaratadi;

— tarbiya inson uchun jamiyatga moslashuv darajasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi;

— tarbiya insonni turli yosh bosqichlarida turli xavflar bilan to‘qnash kelishiga yo‘l qo‘ymasligi yoki insonning ijtimoiylashuv qurboniga aylanish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Bolaning ijtimoiylashuvi mikrooimillar ta'sirida, tengdoshlari va kattalar (oila, qo‘shnilar, mikrojamiyat, tarbiya tashkilotlari) bilan o‘zaro munosabatlarida ro‘y beradi. Ijtimoiy tarbiya bir tomondan, jamoalarda amalga oshirilsa, boshqa tomondan, bolalar va o‘smirlarni jamoa hayotiga ob'ektiv zarurat sifatida kiritib boradi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyiliga ko'ra bolalar, o'spirinlar, o'smirlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi qadriyatlar almashuvi jarayonida amalga oshiriladi. Bular:

- dunyo madaniyatlari va aniq bir jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlar;
- ijtimoiy tarbiya sub'ektlariga xos bo'lgan qadriyatlartarbiya tashkilotlarining muayyan a'zosiga xos bulgan qadriyatlar.

Birgalikdagi faoliyat tamoyilida birinchi o'rinda tenglik emas, balki o'zaro hurmat va sofdillik turadi. Tarbiyaning davomiyligi tamoyili.Bu tamoyil ijtimoiylashuvning merosiylk tavsifidan kelib chiqadi. Tarbiyaning davomiyligi tamoyili inson rivojlanishining har bir bosqichini individual va ijtimoiy qadriyat, deb biladi. Bu tamoyilga kura, har bir bola yoki o'smirning ijtimoiy rivojlanishida doimo davomiy va tugallanmaydigan jihatlar mavjud bo'ladi. Chunki bolalar dunyo va uzi bilan o'zaro munosabatda bo'la turib, doimo o'zlarining innovatik xususiyatlarini saqlab qolishadi (Masalan, J. Tolstoy o'z hayoti davomida unda beshta inson o'zgargan, deb hisoblaydi).

Tarbiyaning davomiyligi tamoyiliga kura uni shunday tashkil qilish kerakki, har bir yosh bosqichida inson "qayta shakllanishl imkoniyatiga ega bo'lsin. Sanab o'tilgan tarbiya tamoyillarini inobatga olinishi va ularning ta'minlanishini ijtimoiy pedagogik faoliyatda ijobiy natijaga erishishnin shartlaridan biri, deb hisoblashn mumkin.

Tarbiya metodlari: Tarbiya nazariyasida tarbiya metodi – tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati yo'li ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bu tarbiya jarayonini tarbiyaning asosiy qonuniga mosligini, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida tushunishni ifodalaydi. Stolyarenko «tarbiya metodi pedagogik maqsadga erishish uchun tarbiyachi ongiga, hissiyotiga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish yo'l va usullaridir» - deb hisoblaydi. Uning fikricha tarbiya metodi pedagog faoliyati orqali amalga oshiriladi.Pedagoglar tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini tashkil etib, ishontirish, namuna, mashq, talab, jazolash va rag'batlantirish orqali ta'sir etadilar. Taniqli pedagog Yu.K.Babanskiy va bir qator olimlar ta'lim va tarbiyani yagona bir

butun pedagogik jarayon sifatida ifodalab, tarbiyasiz ta'lim mavjud emas deb hisoblaydilar. Shuning uchun butun pedagogik jarayon uchun yagona metodlar tizimini taklif etadilar. Tarbiya usullari odatda metodni ajralmas bo'lagi sifatida ifodalanib, aniq vaziyatlarda qo'llaniladi. Masalan, rag'batlantirish metodida maqto'v, tashakkurnoma, taqdirlash usullaridan foydalaniladi. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi Metodlarni bilish ularni biror asos, belgi bo'yicha guruhlariga ajratishga olib keladi.

Pedagogikada biron bir asos bo'yicha metodlarni qat'iy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan. Mutaxassislar metodlarni ko'p qo'llanishiga qarab ishonirish, mashq, namuna, taqdirlash, jazolash metodlarini o'rganganlar. Albatta pedagogik amaliyotda ushbu metodlarni ko'p uchramiz. Pedagog o'quvchilar bilan birgalikda axloqiy normalarni muhokama qilib, tushuntirib, ularni faoliyatga jalb etib, ularga namuna bo'lib tarbiyalaydi. va nihoyat u o'quvchilarni xatti harakatlarini muhokama qilib, ularni stimullashtiradi hamda xulq-atvorini tuzatib, rivojlantiradi. Ilmiy tavsiflash obyektlarni bir-biridan farqlash uchun qat'iy asos va belgiga ko'ra ajratishni talab etadi. Shuning uchun metodlar klassifikatsiyasi ularni bilishni, ikkinchidan ularni ongli, samarali qo'llashni ifodalaydi. Boshqacha aytganda shaxsni bilimini, qarashlarini, idrokini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar bor. Ular ongni shakllantiruvchi metodlar deyiladi. Bundan tashqari, shaxsni xulq-atvoriga va faoliyatiga yo'naltirilgan metodlar mavjud. Bularni xulqni shakllantiruvchi va faoliyatni tashkil etuvchi metodlar deyiladi. Yana xulqni stimullashtirishga va tuzatishga yo'naltirilgan metodlar mavjud bo'lib, ular xulqni stimullashtiruvchi metodlar deyiladi. Yu.K.Babanskiy tomonidan tavsiya etilgan ta'lim va tarbiya metodlari klassifikatsiyasining asosini faoliyat konsepsiyasi tashkil etadi. Unga ko'ra har qanday faoliyat komponentlarini anglash, tashkil etish, stimullashtirish va nazorat tashkil etadi. Faoliyat tarbiya jarayoni tuzilishida muhim o'rin egallab, butun pedagogik jarayonni umumiy metodlarini to'rt guruhga ajratishning asosi hisoblanadi. Shunday qilib, an'anaviy pedagogika fanida tarbiya metodlarini to'rt guruhga ajratilganligini ko'plab mutaxassislar tomonidan guvohi bo'lim

a) ongni shakllantirish metodlari: hikoya, suhbat, ma'ruza, munozara, muhokama;

b) faoliyatni tashkil etish va xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, topshiriq, talab va tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;

d) xulqni stimullashtiruvchi metodlar: musobaqa, o'yin, taqdirlash va jazolash;

e) nazorat, o'z-o'zini nazorat va baholash metodlari: kuzatish, so'rov, faoliyat natijalarini tahlil qilish. Metodlarni guruhlar bo'yicha ajratish mumkin, lekin shaxs qismlar bo'yicha emas, balki bir butun holda shakllanadi, nimagaki ong, munosabatlar, xulq, atvor har qanday holatda mo'ljalli va tasodifiy harakatlar ta'sirida butunlikda shakllanadi.

Birinchi guruh metodlarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarda munosabatlarni, yo'nalganlikni, ishonch va qarashlarni shakllantirish hisoblanadi. Bular asosida xulq-atvor normalari, ijtimoiy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar yotadi. Birinchi navbatda insonni ishonchi uning xatti-harakatlarida ifodalanadi.

Ikkinchi guruh metodlari tarbiyani faoliyatda amalga oshishi prinsipiga amal qilishni talab etadi. Shaxsda u yoki bu sifatlarni sharoit yaratmasdan shakllantirib bo'lmaydi. Pedagoglarni vazifasi ana shunday sharoitlarni hosil qilish hisoblanadi. Uchinchi guruh metodlari yordamida pedagoglar va tarbiyalanuvchilarni o'zlari o'z xatti-harakatlarini nazorat qilib, tarbiyalanuvchilarni faoliyat motivlariga ta'sir etadilar. Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari tarbiya natijalarini baholashga va ahlil etishga yo'naltirilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarni shakllanashiga ta'siretadi. Agar tarbiya natijalari tarbiyalanuvchilar bilan birga tahlil etilsa, samaradorlikka erishiladi hamda ularni o'z-o'zini tarbiyalashi stimullashadi.

Tarbiya metodlari tasnifi; Ongni shakllantiruvchi metodlar. Ushbu metodlar nomlanishiga va mohiyatiga ko'ra ta'limning og'zaki metodlari bilan mos kelib, ularning asosiy vazifasi ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, me'yor, odamlarni xulq qoidalar, qarash va qadriyatlarni shakllantirish sohalariga oid bilimlarni shakllantirish hisoblanadi. Bu metodlar birinchi navbatda shaxsning ongiga, uning aqliy, intellektual, hissiy sohalariga murojaat qiladi. So'z orqali ta'sir etish obro'li

o'qituvchining o'quvchilarning aql va hissiyotiga ta'sir etadigan eng kuchli metod hisoblanib, tarbiyachidan yuqori darajadagi madaniyatni va kasbiy mahoratni talab etadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod, dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, histuyg'usi, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sanaladi.

Ma'ruza, hikoya, tushuntirish — bu og'zaki metodlar, ma'lumotni tahlil amaliyotdan shu ma'lumki, mashg'ulot, uchrashuvlarda o'quvchilar bilan ijtimoiy axloqiy mavzularda suhbatlar tashkil etilishini uchratishimiz mumkin. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda ko'p ishlatiladigan usul bo'lib, u orqali ta'lim oluvchilarni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy shaxs tomonidan o'zligini anglash hamda jamiyatda, jamoada muayyan o'rinni egallashga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Suhbat munozara, muhokama sifatida o'quvchilarni o'zlaridan intellektual va emotsional faollikni talab etuvchi metod hisoblanadi. Tarbiyaviy suhbat, munozara qoidasi bo'yicha tarbiyachining qisqa kirish so'zidan va muammoli xarakterdagi savollarni qo'yishdan iborat. Suhbat metodi o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli nutqi, o'quvchi bilan o'zaro munosabati ta'sirchan usullardan hisoblanadi. Ta'lim oluvchi bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan ma'lumotlar beriladi, ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan munosabat baholanadi, ijobiy sifatlar rag'batlantirilib, salbiy holatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi. Ta'lim oluvchining ijtimoiy ongini shakllantirish uchun tashkil etiladigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular yo'nalish sifatida tanlanadi:

1) yetik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvoro'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

2) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

3) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va hokazolar);

4) qilish va xabar berish bo'lib, tarbiyaviy mazmun va mohiyat kasb etadi. Pedagog ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Muhokama— tarbiyaning maxsus metodi bo'lib, qarama-qarshi fikrlarning to'qnashuvini ifodalaydi. Muhokamani tashkil etish mavzu nomini shakllantirishni, muhokama uchun savollarni tayyorlashni, boshlovchini tanlashni, muhokama qoidalarini bilan ishtirokchilarni tanishtirishni, ko'rgazmali materiallarni tayyorlashni talab etadi. Tarbiyalanuvchilar bilan ijtimoiy-axloqiy savollar bo'yicha muhokamalar tashkil etish tarbiyachilardan bilim va tajribani, uslubiy ko'nikmalarni talab etadi. Tarbiyalanuvchilar bilan axloqiy mavzularni muhokama qilishda qat'iy faktlarni, aniq vaziyatlarni muhokama qilish ko'p hollarda samarali hisoblanadi. Namuna – shaxsga atrofdagilar (xususan, o'qituvchilar, ota-onalar, yoshikatta kishilar)ning yurish-turish, muomala, tartib-intizom qoidalariga rioya qilish, kundalik faoliyatni tashkil etishda o'rnatilgan, ibrat bo'la olishlarini ifodalovchi metod sanaladi.

Yosh avlod uchun quyidagi pedagogik hodisalar namuna bo'la oladi:

- ota-onalarning yurish-turishi, bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari, kundalik faoliyatni tashkil etishlari, atrofdagilarga nisbatan yondashuvlari;

- o'qituvchilarning hamkasblari, rahbarlari, shuningdek, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari, nutq va muomala odobi, kasbiy faoliyatni olib borishdagi mas'uliyatlari;

- ishlab chiqarish ilg'orlari, umuminsoniy hamda milliy ilm-fan, madaniyat ravnaqiga munosib hissa qo'shgan shaxslarning hayoti va faoliyatlari;

- badiiy asarlar, kinofilmlar, spektakllar qahramonlarining xatti-harakatlari ma'naviy qiyofasi;

- afsonaviy va tarixiy milliy qahramonlar, Vatan ozodligi uchun kurashgan shaxslarning jasoratlari;

- favqulodda vaziyatlarda fuqarolik, insoniylik burchini sidqidildan ado etgan shaxslarning xatti-harakatlari;

– tengdoshlarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida, turli vaziyatlarda o‘zlarini tuta olishlari, irodali, matonatli, axloqli ekanliklarini namoyon etaolishlari va boshqalar.

Xulqni shakllantirish va faoliyatni tashkil etish metodlari. Xulqdagi ijobiy tajribaga tarbiyalanuvchilar faoliyatini pedagogik jihatdanto‘g‘ri tashkil etilganda erishiladi. Tarbiyaning faoliyatda mavjudligi qonuniyati asosida tashkillashga bo‘lgan talablar shakllanadi. A.N.Leontevning ta‘kidlashicha, “faoliyat tarbiyanuvchi uchun ahamiyatli, shaxsiy mohiyat kasb etganda tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyalaydi. Bunda tarbiyalanuvchi faoliyatda faol ishtirok etsa, ularni vazifalari almashib turishi kerak”. Tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish pedagogik vaziyatga mos bo‘lishi zarur. ta‘lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Muhokama— tarbiyaning maxsus metodi bo‘lib, qarama-qarshi fikrlarning to‘qnashuvini ifodalaydi. Tarbiyalanuvchilar bilan ijtimoiy-axloqiy savollar bo‘yicha muhokamalar tashkil etish tarbiyachilardan bilim va tajribani, uslubiy ko‘nikmalarni talab etadi. An‘anaviy pedagogikada tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil etish tarbiyaning asosiy metodlari hisoblanadi. Ushbu metodlar guruhiga pedagogik talab, mashq, ijtimoiy fikr, tarbiyalovchi vaziyat kiradi. Pedagogik talab jamiyat va uning a‘zolari tomonidan qabul qilingan aniq xulq-atvor normalarini, qoidalarini, qonunlarini, an‘analarni bajarishga qo‘yilgan talablar sifatida ifodalanadi. Talab ijtimoiy xulq qoidalari yig‘indisi, real vazifalar, biror xatti-harakat bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar, iltimos, maslahat, ko‘rsatma sifatida ifodalanadi. Shakliga ko‘ra talab bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi. faoliyatiga bo‘lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o‘z ichiga oladigan ijtimoiy. Mohiyatiga ko‘ra jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy masalalarni, taniqli shaxslar yoki umuman olganda, jamiyat a‘zolaridan ixtiyoriy birining xatti-harakati, xulq-atvori, yurish-turishi, faoliyati, atrofdagilar bilan muomalasi hamda munosabatining ma‘qullanishi yoki qoralanishini ifodalaydi. Ana shu jihatiga ko‘ra jamoatchilik fikri tarbiyalovchi xarakter kasb etadi. Mashq — xulq-atvor asosi sifatida harakatlarni ko‘p marotaba takrorlash orqali xulqni shakllanishi bilan xarakterlanadi

Mashq – muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashga qaratilgan harakat mohiyatini ifodalovchi metod hisoblanadi. Mashq natijasida muayyan ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati o‘sadi, axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi. Tarbiya amaliyotida mashqning quyidagi turlari mavjud:

- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi doirasida bajariladigan mashqlar;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy va jamoa faoliyatini tashkil etish, o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari ta‘lim oluvchilarni belgilangan kun tartibiga amal qilishga odatlantirish, u bilan bog‘liq ravishda muayyan harakatlarni bajarish, ish va bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiylashuv deganda insonni jamiyatdagi xulq-atvor normalarini o‘zlashtirishini, ijtimoiy hayotda insonni barcha ta‘sir etuvchi omillar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Tarbiya fanda shaxsni rivojlanishi, ijtimoiylashuvi omillaridan biri sifatida qaralib, tarbiyaviy tizim doirasida maqsadga yo‘naltirilgan shaxsni shakllanish jarayoni sifatida aniqlanadi. Tarbiyaning tor ijtimoiy ma‘nosi ijtimoiy institutlardagi tarbiyaviy ta‘sirlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, tarbiya keng va tor pedagogik ma‘noda ham qo‘llaniladi. Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o‘ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo‘naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Yagona maqsadga erishish yo‘li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi. Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko‘zga

tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunday muvaffaqiyatga erishiladi.

Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Malumki, mustaqilligimiz zaminida vujudga kelgan ma'naviy ma'rifiy yangilanish va yuksalish markazida milliy g'oya, milliy mafkura va milliy tarbiya asosiy o'rinni egallaydi. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o'rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ifodalaydi. Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosiga qaraganda bir muncha kengdir. Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurishturish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko'nikish, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini aniqlab olish birligidir. Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat esa uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Shunday qilib tarbiya deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulqatvor tizimi tushuniladi. Tarbiya muayyan maqsad bilan rejali ravishda amalga oshiriladigan davomli ishdir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqola orqali siz o'zingizga ma'naviy ozuqa

olishingiz shubha qilmaymiz. Maqola orqali siz tarbiya va uning metodlari tarbiya tamoillari haqida yanada ko'proq bilimlarga bega bo'lasiz. Maqola orqali siz tarbiya haqidagi tushunchangiz yanada boyigan bo'lsa bu bizning yutug'imiz hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Tarbiya fanining maqsadini aytib bering.*
2. *Tarbiya fanining vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarining “Tarbiyaning zamoni” bobini o'qib, tarbiyaga kimlar mas'ul ekanligini hozirgi davr bilan bog'lab tushintiring.*
4. *Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlariga nimalar kiradi?*
5. *Adabiyotlarni o'rganish metodi haqida ma'lumot bering.*
6. *Suhbat va uni o'tkazish tartibini tushuntiring.*
7. *“Tarbiyaga ko'proq kim mas'ul deb bilasiz?” mavzusida anketa o'tkazing va natijalarni tahlil qiling.*
8. *Tarbiyav fanida matematika va kibernetika metodlari qachon qo'llaniladi?*

2-Mavzu: Tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlari (2 soat nazariy)

REJA:

1. Tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rni.
2. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va ijtimoiylashuv mexanizmlari.
3. Tarbiyada ijtimoiy madaniy tajribalar, me'yor va qadriyatlar.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, davlat siyosati, umumiy o'rta ta'lim, konsepsiya, ma'naviyat, axloq.

1. Tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rni.

Shaxs so'zi avvalo insonga taalluqli tushunchadir. U psixologik jihatdan taraqqiy etgan bo'lib, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turuvchi va muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning bir a'zosi hisoblanadi. Odam avvalo shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etib, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqa insonlardan farq qilishi lozim. “Individ” nima? “Bola ma'lum bir

yoshga qadar “individ” hisoblanadi. Individ so’zi lotincha “individuum” so’zidan olingan bo’lib, “bo’linmas”, “alohida shaxs” va “yagona” degan ma’nolarni anglatadi. Individ xatti-harakatlarini shartli reflex yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun birinchi navbatda ijtimoiy muhit sharoitlari hamda tarbiya zarur. Chunki odam bu narsalar ta’siridagina inson sifatida rivojlanib, shakllanadi. Rivojlanishning o’zi nima? Rivojlanish deganda shaxsning fiziologik va intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan hamda miqdor va sifat o’zgarishlari mohiyatini o’zida ifoda etadigan jarayonni tushunamiz.

Rivojlanish - shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarning takomillashuvini namoyon etadigan jarayon bo’lib, bunday xislatlar tug’ma, ba’zilari keyinchalik erishilgan bo’ladi. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga qarab, quyidan esa yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o’tib, yangilanib, yangining paydo bo’lishi, eskining esa yo’qolib borishi, miqdor o’zgarishining sifat o’zgarishiga o’tishini ifodalab kelishi mumkin. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklarning o’rtasidagi kurashdan iboratdir. Ayni vaqtda inson tirik biologik mavjudot hisoblanadi. Demak, insonning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiv qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni birbiriidan ajratib bo’lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, uning hayot tarzi, yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etishi mumkindir. Inson butun umri davomida o’zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo’lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o’ziga munosib o’rin egallavdi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to’g’ri ko’rish va uni bexato baholamaslik uchun turli munosabatlar jarayonida kuzatib borish lozim. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to’g’ri hal etish uchun avvalo uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab, so’ng shaxs xususiyatlarini yaxshilab

o'rganish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. "Tarbiya" arabcha so'z bo'lib, o'stirdi, rahbarlik qildi, isloh qildi degan ma'nolarni bildirib keladi. Islom ulamalaridan bo'lgan Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamom nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning yana bir ma'nosi, insonning diniy, fikriy hamda axloqiy quvvatlarini uyg'unlik va muvozanat ila o'stirishdir". Tarbiya insonning o'z oilasi, jamoasi va jamiyatida muhim asos bo'lib xizmat qiladi, chunki hech kim o'z onasidan "yomon" bo'lib tug'ilmaydi. Tug'ilgandan keyin ham hech bir ota-ona o'z bolasini yomon inson bo'lishini xohlamaydi, balki uni ardoqlab voyaga yetkazib, yurtga foydasi tegadigan inson bo'lishini xohlaydi. Har qanday yomonlik, gunoh ishlar esa tarbiyasizlik, bilimsizlik va ma'naviy qashshoqlikdan kelib chiqadi. Shaxs kamolatida tarbiyaning o'rnini haqida Demokritning quyidagi fikri qimmatlidir: "Insonni inson qilib o'stiruvchi narsa bu tarbiyadir". Shaxs faoliyatida ta'lim-tarbiya va ilm asosiy rol o'ynaydi. Shu tufayli inson buyuk shaxs bo'lib yetishadi. To'g'ri tarbiya insonni ilimli, bilimli, ongli, madaniyatli va ma'rifatli qilishi mumkin, hattoki, komil inson darajasigacha yuksaltiradi. Inson tarbiya orqali komillik sari "ko'kka bo'y cho'zadi" va unda eng yaxshi "yo'ldosh" hayotda olinadigan ibratnamuna va kitob mutolaa qilish orqaligina bilimli-ma'rifatli bo'la oladi. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Pedagogika, psixologiya hamda falsafa fanlarida individning shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida aytiladi. Bularga irsiyat (biologik omillar), muhit (ijtimoiy omillar) hamda tarbiya kabi omillarni sanab o'tadi. Fanda esa odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozaralar ko'p vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Fanda biologik vo'nalish deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari bo'lgan Aristotel hamda Platonlar tabiiy - biologik omillarni yuqori qo'yishadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab beradi, deb hisoblaydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari

esa shaxs rivojlanishida naslning rolga katta ahamiyat berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etganlar. Xorij psixologiyasidagi oqimlardan yana biri - bixeviorizm. Bu oqim XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari fikricha ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deb bilashadi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari hisoblangan D.D'yul va A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazarda asoslab beradilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb hisoblaydilar. Naslning rolini esa absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb bilishadi. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanish jarayonini biologik (nasliv) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari esa rivojlanishni ijtimoiv omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Tarbiyaga ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda, shaxs rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda qulay omillardan foydalanib, salbiy ta'sirlarning kuchini ham ma'lum darajada kamaytiradi. Muhitning ta'siri stixiyali, tarbiyasining ta'siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs ijtimoiv munosabatlar jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lim jarayonida esa o'quvchilarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va jamiyat a'zolari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi esa uzoq davom etadigan murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Har qanday jamiyatning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimi ishlab chiqiladi. Ijtimoiylashuv davrida har bir jamiyat a'zosi mazkur qadriyat, ideal, me'yor va qoidalarining mohiyatini anglaydi va ularga rioya qilish asosida faoliyat yuritadi. Ijtimoiylashuv ijaravoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan shaxsning xatti-harakatlari va xulq-atvori jamiyat talablariga mos kelgan holda u bilan o'zaro uyg'unlasha olishi, salbiy ijtimoiy hodisalarga, individual rivojlanishiga to'sqinlik

qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi tura olishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksini ham ko'rishimiz mumkin: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsata olmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqlidir. Tarbiyada esa qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchi kishilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, inson shaxs sifatida shakllanishida nafaqat tarbiya balki, ijtimoiy omillar va biologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina, uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohasidagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

2. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va ijtimoiylashuv mexanizmlari

Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon, qanday sharoitlarda paydo bo'lgani va jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari mavjud. Bu jarayon psixologiyada *ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya* deb yuritiladi.

Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv — har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtayi nazaridan turlicha subyektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 —

15 ta o'quvchidan iborat ijod maktabi o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimi, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota — onalarining kutuvlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin, ana shu 15 o'quvchining har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatgichlari va iqtidorida aks etadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi to'g'risida gap ketarkan, aytish kerakki, bu sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, u- individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individda shaxs bo'lishga ehtiyoj, imkoniyat va zaruriyat bordir. Bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsional muloqotga ehtiyojning borligi).

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Yashash — bu harakatlanish demakdir. Inson hayoti — bu bir-biri bilan o'rin almashuvchi faoliyatlar tizimidir. Faoliyat — bu insonning voqelik bilan o'zaro munosabati jarayoni bo'lib (tabiiy va ijtimoiy), bu passiv jarayon emas, aksincha ong bilan boshqariladigan, nisbatan ortiq yoki kamroq faollikdir. Inson faoliyati bevosita ehtiyojlar bilan emas, balki aniqlangan maqsad asosida boshqariladi.

Inson faoliyati rang-barangdir. Faoliyat tizimini ko'rib chiqaylik. Birinchisi, maqsad. U inson ehtiyojlarini amalga oshiradi va faoliyatning oxirgi[2] natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi (uy qurish, universitetni bitirish, masalani yechish va h.k.), lekin maqsadni aniqlash bilan masala hal bo'ldi deb bo'lmaydi, aksincha bunda odamda nima uchun qilyapti? — degan savol yuzaga keladi. Masalan, universitetni tamomlash. Maqsad — tamomlash. Tamomlash motivlari turlicha bo'lishi mumkin — diplom olish, bilim olish, o'z obro'sini mustahkamlash, o'z o'rnini tasdiqlash va h.k.

Motiv – bu birinchidan, insonni faoliyatga undaydi, ikkinchidan, faoliyatda o‘ziga xos jihatlarni namoyon etadi va maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullarni tanlashga yordam beradi. Motivlarga ehtiyojlar, qiziqishlar, emotsiya va hislar, e‘tiqod va ideallar, ustanovka va odatlar kirishi mumkin. Maqsadlar kabi motivlar ham uzoq va yaqin, shaxsiy va umumiy bo‘lishi mumkin. Inson hayoti jarayonida bir maqsad sari intilib yashaydi va o‘z-o‘ziga “Men shuni qilishim kerak!” degan ustanovkani beradi. Ijtimoiylashuv jarayonida muvaffaqiyatga erishish inson uchun muhim faktordir. Insoniy faollikka undovchi narsa **ehtiyojdir**. Avvalombor bu, ma’naviy, madaniy ehtiyojlar va o‘z-o‘zini rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlardir.

Ehtiyoj – inson ongida qandaydir predmet va hodisalarga nisbatan zaruriyatni aks ettirishdir. Psixologiyada quyidagi asosiy ehtiyojlar ajratiladi – tabiiy, moddiy, madaniy, ma’naviy, ijtimoiy. Tabiiy va moddiy ehtiyojlarini qondirilishi inson va hayvonlarning mavjud bo‘lishini ta’minlaydi. Ijtimoiy ehtiyoj bu – baho olishga nisbatan ehtiyojni, biron-bir guruh a’zosi bo‘lishga ehtiyoj, muvaffaqiyatga erishish harakatini nazarda tutadi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning muvaffaqiyatga erishish jarayoni uning o‘z qo‘lidadir. “Men o‘zim” degan tushuncha insonda bolaligidan boshlab tarkib topadi. Yurishni boshlayotgan bolani qo‘lidan ushlab yordam bermoqchi bo‘lsangiz u qo‘lingizni surib gapirmasa-da, harakatlari bilan “men o‘zim” degan holatni namoyon qiladi. Maktabga chiqqan bolani qo‘lidan ushlab yozishni o‘rgatmoqchi bo‘lsangiz “Yuq men o‘zim” deydi, o‘smir bolaga biror bir xatosini to‘g‘rilab ko‘rsatmoqchi bo‘sangiz “Men o‘zim qila olaman va bilaman” deydi, o‘spirin kasb tanlayotganida “Men o‘zim kim bo‘lishimni bilaman” deydi va hokazo.

Insonda bolaligidan ana shu “men o‘zim” degan tushunchani barqaror bo‘lishi, qiyinchilik va muammolardan qo‘rqmasligi, o‘z kelajagi va muvaffaqiyatini o‘zi ta’minlashi uchun muhim ahamiyatga egadir. Inson va uning ehtiyojlari oxir oqibat uning manfaatlari bilan to‘qnashadi. Har bir insonning o‘z qarashlari, o‘ylari, fikrlari tizimi, ular majmuasi mavjud bo‘ladi. O‘y va fikrlar insonning o‘z shaxsiy manfaatlarini anglatadi. Inson o‘z shaxsiy manfaatlarisiz yashay olmaydi. Har bir

odam, hatto eng kichkina yoshdagi bolakaylarning ham o'z shaxsiy manfaatlari mavjud.

Boshlagan ishimiz, rejalashtirgan xatti-harakatlarimiz muvaffaqiyat bilan tugasa, xursand bo'lamiz. Lekin ishlarimiz o'xshamasa, muvaffaqiyatsizlikka uchrasak tushkunlikka tushamiz, qaytib shu ishni qilishdan qo'rqamiz yoki undan qochamiz. Shunday vaziyatga tushgan yoshlarga qanday maslahatlarni berish mumkin? Eng avvalo, inson hamma narsa uning qo'lida ekanligini unutmasligi lozim. Insonlar o'zgalar va o'z fikrlari asosida o'zgaradilar. Birinchi navbatda biz o'z fikrlarimiz va so'zlarimiz xo'jayini bo'lishga harakat qilishimiz va shuni shakllantirishimiz lozim.

Muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun maqsadlar aniq va shaxs imkoniyatlari darajasida bo'lishi lozim. Har qanday ishda mas'uliyat va mas'ullik bo'lish kerak. Hayotda muvaffaqiyatga erishgan va ijobiy fikrli kishilar yonida bo'lishga intilish lozim. Zero, bunday kishilar sizga yordam berishdan qo'rqmaydi.

Insonning uch dushmani bor- bu qo'rquv, ikkilanish va xavotir. Bu uchovlon muvaffaqiyatsizlik omillaridir. Qo'rquvni yenga olgan, o'z kuchiga ishongan ikkilanmagan kishinigina g'alaba kutadi. Qo'rquv va xavotirni yengish bo'yicha quyidagi takliflarga diqqatingizni qaratsangiz.

- Qo'rquv va xavotiringizning sababini aniqlang;
- Chuqur o'ylab uni sababli kelib chiqqanini tahlil qiling va qanday oqibatlarga olib kelishi haqida o'ylang;
- O'zingizga savol bering: siz nimadan qo'rqasiz: o'tmishdanmi yoki kelajakdan? Shuni unutmangki , 40% xavotir va qo'rquvlarimiz hayotga tatbiq etilmaydi, 30%ni o'zgartirib bo'lmaydigan o'tmish bilan bog'liq bo'ladi, 12%- bu boshqalarga taalluqli bo'lgan muammolar va tashvishlar, 10%esa bizni kasalliklar sari yetaklaydi va faqat 8%gina haqiqatda harakat qilishimiz, o'zimizga ishonishimizga sabab bo'lishi mumkin.

Agar muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsangiz har qanday bekorchi gap-so'zlardan o'zingizni himoya qiling. Shuni bilingki, o'z-o'zini nazorat qilish g'olib insonga xarakterlidir. Birov sizni yetaklashini kutmang, o'z hayotingizga o'zingiz xo'jayini bo'ling! Inson faol va tashabbuskor bo'lishga harakat qilishi lozim. Bir

vaqtlar Abraam Linkoln “Men har doim bir kuni kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyatimni kutib, tayyor bo‘lib yashayman” degan edi.[3] Muammolar va ularning yechimidan qo‘rqish kerak emas. Boshqalar va o‘zingiz uchun maqbul bo‘lgan qarorlarni qabul qilishga va shu orqali muammoni yechishga harakat qiling.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday faoliyatda inson u yoki bu darajada o‘z harakatlarining maqsadini aniqlaydi, uning yakuniy natijasini xayol qiladi, vaziyatlarni baholaydi, ularning ketma-ketligini ta‘minlash haqida fikr yuritadi, diqqatini yo‘naltiradi, irodasiga zo‘r beradi, boshqalar faoliyatini kuzatadi hamda muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni boshidan kechiradi. Bu esa har bir shaxsga o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida doimiy ishlash kerakligini ko‘rsatadi.

3. Tarbiyada ijtimoiy madaniy tajribalar, me‘yor va qadriyatlar.

Kelajagimizning munosib vorislari-yoshlarimizning barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” deb nomlangan kitobida “Biz yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”, deb ta’kidlaydi. Zero, Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir.

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo‘lib belgilandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ma’naviy yuksalish yo‘lidagi tahdidlar va ularni bartaraf etish yo‘llarining bugungi kundagi vazifalari qadriyat tushunchasiga borib taqalishi obyektiv ochib berildi. Respublikamizning taniqli olimlaridan E. Yusupov, J. Tulenov, Z. G‘ofurov va rus faylasuflari A.G. Zdrovomislov va G. Drabnitskiy ham risolarida o‘z fikrlarini bildirganlar.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma’naviy narsa yoki hodisa o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi

sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma'naviy taraqqiyotning zaruriy mahsulidir. Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari majmuidir. Qadriyatlar ahloqiy qoida va me'yorlar, g'oyalar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o'zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o'zaro yordam va adolatlilik, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi.

1 Qadriyat-boshqa bir ta'rifda esa qadriyat bu atrof muhitdagi narsalarni, hodisalarni ularning inson va jamiyat uchun ahamiyatga qarab, ijobiy yoki salbiy deb baholash ularni muhim yoki nomuhim, zaruriy yoki keraksiz, qadrl yoki beqadr asosiy yoki ikkinchi darajali deb belgilash natijasida vujudga keladigan tushuncha yoki nuqtai nazarlarda aks etuvchi ob'ektlardir, deb belgilangan.

Fikrimizcha, qadriyat–bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o'sishini rag'batlantirish omilidir. Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi² . Milliy qadriyatlar–millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklardir.³ Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi. Zero, o'z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi,

istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy omil hisoblanadi. Xullas, Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma’naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borish ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir. Milliy qadriyatlarning qudratli manbai va azaliy urf-odatlarimizdan biri-oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Kattalarni hurmat qilish, o‘zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g‘amxo‘rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo‘lib kelgan.

Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qaramaqarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavfxatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda.”

Inson-eng oliy qadriyat, Shu bois, millatimizga xos bo‘lgan qadriyatlardan yana biri-bolajonlik, Oilada ko‘p farzandlarni dunyoga keltirish va ularni kamolga etkazish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66- moddasida “Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxurlik qilishga majburlarlar”-deyiladi. Shunisi quvonarli-ki, biror-bir xorijiy davlatning Konstitutsiyasida bu kabi modda uchramaydi.

Aytish lozimki, bizning Konstitutsiyamiz nafaqat demokratik tamoyillar, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhi bilan sug‘orilgan. Oila qanchalik qudratga ega bo‘lmasin, u farzand tarbiyasida qo‘ni-qo‘shnilardan iborat bo‘lgan mahalla va tarbiya maskanlarining ko‘magisiz yuqori natijalarga erisha olishi mushkul. Milliy qadriyatlarimizning asosiy xazinaboni-oila deb oladigan bo‘lsak, bu xazinani asl san’at asari darajasiga ko‘taruvchi naqqoshlar mahalla va maktabdir. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi

beqiyosdir. “Mahalla-ham ota, ham ona” degan hikmatli naql haqiqat, bejiz aytilmagan. Chunki, mahalla haqida gapirganda, ko‘pchilik ana shunday chuqur ma’noli so‘zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan maqolning haqiqiy ma’nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab, shu asosida yashaydigan vaqt keldi. Har qanday millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvidan tarkib topadi. SHu boiz milliy qadriyatlarga e’tiborni ko‘chaytirish kerak. CHunki, milliy qadriyatlarga e’tibor kamayar ekan, bu o‘z navbatida umuminsoniy qadriyatlarning boyishiga salbiy ta’sir etadi. Biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti ichki dunyosidagi mustahkam o‘rin olgan, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an’analарimizni, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan olijanob qadriyatlarni, g‘ururimizni ko‘taradigan, xalqimizni obro‘sigа obro‘ qo‘shadigan insoniy odat va fazilatlarni saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik sifatida yangi kelajak avlodlarga etkazish zarur. Bugun yurtimizda qadriyatlarimizni qadrlaydigan, ezgu an’analarga o‘z hayotiy mo‘ljalida muhim omil sifatida munosabatda bo‘ladigan yoshlar ko‘p. Lekin hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarning o‘rnini biroz to‘g‘ri tushunmaydigan yoki o‘zini undan xoli holda ko‘rib milliy madaniyatimizga e’tiborsizroq bo‘lgan yoshlarimiz borligini ham hozircha inkor etolmaymiz.

Barchamiz guvohmiz-bugun dunyo misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan keskin o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e’tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo‘lmaydi. Biroq qadriyatlarimizga qarshi bo‘zg‘unchi g‘oyalar ya’ni: “shaxs erkinligi” ga qarshi oila va jamiyat oldidagi yuksak ma’suliyatni: “individualizm”ga qarshi jamoaviylik, mahalladoshlikni, “egotsentrizm”ga qarshi ota-ona, qarindosh-urug‘larni hurmat qilish, mehr-oqibatni, “olomon madaniyatiga qarshi” milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali jamiyatimiz barqarorligiga tahdid soluvchi illatlarga qarshi ong-tafakkurda mafkuraviy to‘siq qo‘yish darkor. Bugungi erkin va ozod hayotning ma’nosi va

qadr-qimmatini yoshlarning ongi va qalbiga etkazishda birinchi navbatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas'ul bo'lmog'i kerak. Zero, Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday orzu-niyat va o'y-hayollar bilan yashamoqda, biz bunga loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-ona, ustoz-murabbiy, etakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo'q"5 Bugungi kunda farzanlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati haqida ma'lumot bering.
2. Konsepsiya tushunchasining mazmunini tushuntiring
3. Tarbiya konsesiyasi deb nimaga aytiladi?
4. Jahon tarbiya konsesiyalarini milliy tarbiya tizimi bilan qiyosiy tahlil qiling.
5. Uzluksiz ma'naviy tarbiya qachon qabul qilindi?
6. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya- taraqqiyot kafolati" mavzusida esse yozing.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI


1-Mavzu: Tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlar (2 soat)

REJA:

1. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning roli.
2. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida.
3. Ijtimoiylashuvda tarbiyaning mazmun va mohiyati.

1-Topshiriq. Kichik guruhlarda tarbiyaning maqsadini yorituvchi “Ikki sahifali kundalik”ni shakllantirish.

Tinglovchilar uchun quyidagi ish qog'ozi tavsiya etiladi:



1. “Ikki sahifali kundalik” metodi.

Metodning maqsadi – mazkur metod nafaqat matnning mazmunini o'rganishga, matn mazmunini o'zining shaxsiy tajribasi bilan bog'lashga va o'zlashtirgan axborot, g'oya, yoki fikrlarga nisbatan o'z munosabatini yozma ifoda etishga imkon beruvchi oddiy va samarali usul bo'lib, talabalardagi shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Metodni o'tkazish tartibi:

- ish daftari vertikal chiziq bo'yicha ikkiga bo'linadi.
- chap tomonga talabalar mavzu yuzasidan unda taassurot uyg'otgan, yoqqan yoki savol tug'dirgan sitata, g'oya yoki fikrlarini yozadi (masalan, juda aqlli ta'rif, dalil yoki sabab va boshqalar).

-o'ng tomonda keltirilgan sitata yoki fikrga o'zining sharhlarini yozadi, ya'ni o'z munosabatini quyidagi yo'nalishlarda bildiradi: Uni bu fikr yoki g'oyaning nimasi qiziqirdi va yozib olishga undadi? Bu nima haqda o'ylashga majbur etdi? Bu fikr bo'yicha u qanday savollarni o'yladi?

- matnni o'qiyotganida talabalar kerakli qo'shimcha fikrlarni aniqlab, kundalikka yozib boradi.

-ish yakunlagandan so'ng talabalar juftliklarda ishlashlari, tahlillarini almashishlari, o'rtoqlari tahlilida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko'rsatishlari mumkin.

Trenerga tavsiyalar

- Siz oldindan sitatalar yoki g'oyalar sonini belgilab olishingiz mumkin (misol uchun, 2 ta, 4 yoki 5 tadan), - sitatalar mazmuni va yo'nalishi mutaxassislik, fan yoki mavzuga mos bo'lishi, kerak.

- Agarda siz ijtimoiy-tarbiyaviy mavzuda bu treningni o'tkazmoqchi bo'lsangiz g'oyalar yoki sitatalar hayotiy-ijtimoiy mavzularda tanlanishi mumkin bo'ladi. Bularning barchasi siz o'z oldingizga qo'ygan maqsadga va sizning pedagogik uslubingizga bog'liq bo'ladi.

- Ish shakllari:

- uchliklarda ishlash;


- kichik guruhlarda ishlash;

- blis-so'rov – siz bir qator talabalardan faqat bitta sitatani va faqat birgina sharhni o'qib berishni so'raysiz;


- Fidbeyk.

Yakunlar munozara tayyorlash yoki o'tkazish, insho yozish yoki asoslangan esse yozish uchun xizmat qilishi mumkin.

2-Topshiriq. 1. Tarbiya fanining asosiy qonuniyatlari va tamoyillarini Klaster metodi yordamida yoriting.



3-Topshiriq.



«Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari


1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

2-MAVZU: Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modeli (2 soat)

REJA:

1. Jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash masalalari.
2. Tarbiyaning ijtimoiylashuv obyekti va subyekti, tarbiyaga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar.

1-topshiriq. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi bosqichlarini zinama-zina metodi yordamida tushuntiring.




2-topshiriq. Tarbiya fanining qanday muammolari mavjud, ularni qanday qilib bartaraf etish mumkin? «Qanday?» diagrammaci orqali tavsiflang

«Qanday?» diagrammasi

Muammoni hal qilishda o'zingizga beradigan asosiy savol – bu «QANDAY?» savolidir. Ko'pchilik holatlarda nima qilish haqida o'ylamaysiz. Muammoning javobi deyarli hammavaqt buni qanday qilish kerak savolida bo'ladi.

“QANDAY? usulini ishlatgan paytimizda «Qanday?» degan bir savolga javoban yana boshqa shunday savol bo'lishi kerak. Shu sababli ish jarayonida siz nafaqat imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham o'rganib chiqasiz.



GLOSSARIY

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'limmuassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Anomaliya (yunoncha — anomal) — me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Axloq - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulqatvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloq (lotincha «moralis» — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) — ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqloq g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tug'al mazmundan iborat.

Darslik — muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Darsning maqsadi o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Dastur — bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'limlovchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini oqishmay

amalg oshirilishida zamonaviy ta'limtexnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasawurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Dogmatik o'qitish – bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan, ulami muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'mini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi.

Fikr - inson faoliyati uning o'zligini kuch - qudratini o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jomoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Hisobga olish — bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy ta'lim- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda

huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Idrok- borliqni odam ongiga aks ettirish.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha “rehabilitas” — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasigata'sirko'rsatish usullari.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Illyustratsiya metodi - bilimlarni ogzaki bayon kila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar doskadagi yozuvlarga bolalar diqqatini tortish.

Individ (lotincha “individuum” bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Innovatsion ta'lim– bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

Interaktiv -so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib «Inter» - o'zaro, «act» - harakat, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi(talaba)ning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachini, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Izohlash — tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoa-insonparvarlik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Korreksion (maxsus) pedagogika— rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi — belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat-yaxlit ta'limjarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik choratadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksiya (yunoncha “correctii” — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Ma'naviyat (arabcha “ma'naviyat” — ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat — shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Mafkura (arabcha <<mafkura>> - nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyi.

Malaka — ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy arbiyaning tarkibiy qismi.

Metod- so'zining yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Metodika (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'limot) dunyoqarasp-ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavda- lantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tu- fayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy- ijtimoiy va mada- niy-ma'naviy sohalarida faollik darajasi.

Muammoli izlanish metodi - Muammoli izlanish metodi tipiga o'quvchilar tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodlaridir. Bu metodlar asosida o'quv - tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri, faolligi ko'zda tutiladi (muammoli hikoya, muammoli lektsiya)

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Mustaqil ishlash metodi. Mustakil ishlar ta'limning turli zvenolari, tsikllarida, darsning barcha etaplarida o'tkaziladigan, o'qituchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'mi

O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlar, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlar, hatti harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O'z -o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurishturishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilishlari, turli o‘quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta‘minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo‘llaniluvchi usullardir. O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta‘minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta‘sirchan vositasidir.

O‘z-o‘zini qayta tarbiyalash – shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish - o‘z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bo‘lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o‘z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

Odob - har bir insonning o‘zi bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotida hamda yurish-turishida o‘zini tuta bilishidir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlari.

Pedagogik tizim - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha ko‘rinishdagi maktabgacha tarbiya, o‘rta umumiy ta‘limmaktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o‘zaro uzviylikdagi tizimi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo‘lib, «paidagogos» - bola, etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta‘limberishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Pedagogika o‘zining ob‘ektini – rivojlanayotgan, doimiy yuksalish sharoitidagi insonda anglaydi. Bu inson doimiy ravishda tabiat hamda jamiyat qonuniyatlariga bo‘ysunib, ular bilan uyg‘unlikda faoliyat ko‘rsatadi.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a‘zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor meʼyorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini oʻzlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Sinf - yoshi va bilim darajasi bir xil boʻlgan oʻquvchilar guruhi tushuniladi.

Taʼlim muassasasining ustavi taʼlim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Taʼlim jarayoni – oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon.

Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qoʻllash.

Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - oʻqituvchi va oʻquvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yoʻnaltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni — shaxsning shakllanishiga qoʻyiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” - yoʻl) tarbiya maqsadiga erishishning yoʻli; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuygʻulari va xulqiga taʼsir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini oʻrganadi.

Tashxis — bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash

Tekshirish — nazoratning tarkibiy qismi boʻlib, uning asosiy didaktik vazifasi oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasida aks aloqani taʼminlash, pedagog tomonidan oʻquv materialini oʻzlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni oʻz vaqtida aniqlashdir.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) oʻzaro bogʻlangan koʻplab elementlar (tarkibiy qismlar) oʻrtasidagi mustahkam birlik va oʻzaro yaxlitlikdir.

Uzluksiz taʼlim– malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi boʻlib, taʼlimning barcha turlarini, davlat taʼlimstandartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat koʻrsatish muhitini oʻz ichiga oladi;

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos boʻlgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos boʻlgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 296-son Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 422-son Qarori.
15. 15. - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son Qarori

III. Maxsus adabiyotlar

16. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство сРНС, 2015. – 318 с.
17. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 116 с.
18. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
19. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.
20. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
21. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
22. Topildiev V. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. - Toshkent: "Universitet". 2015. – 245b.
23. Quronov M ., Turaev Sh .va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. o'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti 2017y. 18b.t
24. Kodirov A ., Quronov M.va boshq.Fazilatli avlod: 7-18yosh gacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti 2019 y.
25. Olimov Sh.Sh.. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 bet.

IV. Internet saytlar

26. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
27. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
28. <http://lib.bimm.uz> –Bosh ilmiy-metodik markazi
29. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali ZiyonET
30. <http://natlib.uz>–Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi